

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA IJOBİY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRUVCHI METODLAR

**Mo‘minova Shoxistaxon G‘ulomjon qizi**

*University of Business and Science*

*Maktabgacha-Boshlang‘ich ta‘lim va sport faoliyati kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, ularda ijobiy fazilatlarni mas‘uliyat, empatiya, hamkorlik, mehnatsevarlik tarkib toptirishning zamonaviy pedagogik va psixologik metodlari tahlil qilingan. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o‘ziga xos sensor-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ta‘lim jarayoniga integratsion va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarni joriy etish masalalari yoritilgan. Maqolada an‘anaviy tarbiya usullaridan transformatsion va interaktiv metodlarga o‘tishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *boshlang‘ich ta‘lim, ijobiy fazilatlar, kognitiv komponent, rolli o‘yinlar, kollektiv ijodiy faoliyat, sokratcha dialog, integratsion-aksiologik yondashuv, empatiya.*

### **Kirish**

Zamonaviy ta‘lim tizimining fundamental vazifalaridan biri nafaqat intellektual salohiyatli, balki yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Xususan, boshlang‘ich sinf yoshi inson shaxsiyatining ijtimoiy-axloqiy normalarni faol o‘zlashtiradigan, ijobiy xulq-atvor ko‘nikmalari poydevori qo‘yiladigan eng sezgir davri hisoblanadi.

Taniqli o‘zbek ma‘rifatparvari Abdulla Avloniy ta‘kidlaganidek: “Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandirmak, axloqimizni go‘zallandirmak lozim”. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy fazilatlarni shakllantirish shunchaki tayyor axloqiy qoidalarni yodlatish emas, balki bolaning ongi, hissiyoti va amaliy faoliyatini birdek qamrab oluvchi yaxlit ilmiy-pedagogik tizim yaratishni taqdim etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy fazilatlarni shakllantirishda juda ko‘plab yondashuvlar va metodik tavsiyalar, o‘yinlar muhim omil va samarali vosita hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘qish bo‘lsa-da, ularning psixologik tabiatida o‘yin elementlariga bo‘lgan ehtiyoj yuqoriligicha qolmoqda. Shu sababli, modelning protsessual qismida biz o‘yinni shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, balki axloqiy normalarni amaliyotda sinab ko‘rish imkonini beruvchi axloqiy poligon sifatida talqin etamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy fazilatlarni shakllantirish jarayoni shunchaki nazariy bilim berish emas, balki bolaning emotsional va ijtimoiy tajribasini boyitishni taqozo etadi. Tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan modelning protsessual qismida texnologik usullar va didaktik o‘yinlar o‘zaro integratsiyalashgan holda, o‘quvchining axloqiy o‘zini-o‘zi anglash darajasini oshirishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotimiz doirasida bir nechta texnologik usullar va didaktik o‘yinlar tavsiya etilgan. Ulardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijobiy fazilatlarni shakllantirish vositasi sifatida foydalanish masalasiga quyida alohida to‘xtalib o‘tamiz.

“Ezgulik qutichasi” usuli o‘quvchilarda kundalik hayotda ijobiy ishlarni amalga oshirish motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu usul o‘quvchining o‘z harakatlarini tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bola kun davomida qilgan kichik bo‘lsa-da yaxshi amalini masalan, do‘stiga yordam berishi, sinf tozaligiga hissa qo‘shishi qog‘ozga yozib qutichaga tashlaydi. Haftalik yakunida ushbu ezguliklar jamoaviy tahlil qilinadi, bu esa sinf jamoasida ijobiy axloqiy muhitni barqarorlashtiradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Kichik maktab yoshidagi bolalarda ijobiy sifatlarni tarkib toptirish muammosi jahon va respublika pedagogika fani vakillari tomonidan keng tadqiq etilgan. Jan Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bu yoshdagi bolalar axloqiy realizm bosqichidan axloqiy avtonomiya qoidalarining ijtimoiy kelishuv ekanini anglash bosqichiga o‘ta boshlaydi. Lev Vigotskiyning “Yaqindagi rivojlanish zonasi” konsepsiyasi esa boladagi ijobiy fazilatlar ijtimoiy muhit va kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyat jarayonida samarali shakllanishini isbotlaydi.

Sharq mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Navoiy asarlarida oilaviy va ijtimoiy tarbiya jarayonida bolada ijobiy xislatlarni shakllantirishda shaxsiy namuna va amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni beqiyos ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limga integratsion-aksiologik qadriyatli yondashuvni olib kirish orqali ona tili, o‘qish savodxonligi va tarbiya darslarida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish dolzarb yo‘nalish hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmi uchta konseptual komponentning o‘zaro uzviyligiga tayanadi:

**Kognitiv komponent axloqiy ong:** Bola muayyan fazilatning masalan, adolat yoki saxovat nima ekanini va uning ijtimoiy ahamiyatini tushunishi.

**Emotsional-affektiv komponent hissiy munosabat:** Axloqiy me‘yorlarga nisbatan ichki ehtiyoj, hamdardlik empatiya va ijobiy his-tuyg‘ularning uyg‘onishi.

**Konativ komponent xulq-atvor amaliyoti:** Bilim va hissiyotning real hayotiy yoki o‘quv vaziyatlarida ijobiy harakat ko‘maklashish, mas’uliyatni bo‘yniga olish sifatida namoyon bo‘lishi.

Ushbu komponentlarni rivojlantirish uchun tadqiqot davomida quyidagi tizimli metodlar majmuasi tasniflandi:

### **Ijtimoiy-modellashtirish va faoliyat metodlari**

**Sotsiomadaniy kontekstli rolli o‘yinlar:** O‘quvchi mashg‘ulot davomida turli ijtimoiy rollarni shifokor, o‘qituvchi, yordamga muhtoj inson bajaradi. Bu jarayonda u o‘z g‘alar hissiyotini tushunishni empatiya o‘rganadi.

**Kollektiv ijodiy faoliyat (KIF):** O‘quvchilar guruhlariga bo‘lingan holda umumiy loyihalar masalan, “Tabiat burchagi”ni tashkil etish, “Yashil makon” aksiyalari ustida ishlaydilar. Bu hamjihatlik va jamoaviy mas’uliyatni oshiradi.

### **Kognitiv-Rag‘batlantiruvchi va Refleksiv Metodlar**

**Sokratcha Dialog (Muammoli Axloqiy Suhbatlar):** O‘qituvchi tayyor xulosani aytmaydi, balki savollar zanjiri orqali bolani mustaqil fikrlashga majbur qiladi. *Masalan:* "Do‘stingiz xato qilsa, uni hammaning oldida tanqid qilgan ma‘qulmi yoki yolg‘iz qolgandami?"

**Ertakterapiya va Biblioterapiya:** O‘qitish va o‘qish darslarida ijobiy va salbiy qahramonlar xulqini qiyosiy tahlil qilish orqali bolaning o‘z-o‘zini identifikatsiya qilishi (ijobiy qahramonga taqlid qilishi) ta‘minlanadi.

"Ezgulik qutichasi" metodikasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida empatiya, o‘z-o‘zini tahlil qilish (refleksiya) va ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantirishda eng samarali interaktiv usullardan biridir. Bu metod nafaqat bolalarni yaxshilik qilishga undaydi, balki sinfdagi ma‘naviy muhitni butunlay o‘zgartiradi.

Quyida ushbu metodikadan foydalanishning bosqichma-bosqich qo‘llanmasi keltirilgan:

1. Tayyorgarlik. "Ezgulik qutichasi"ni yaratish – Metodikaning muvaffaqiyati uning taqdimotiga bog‘liq.

2. Sinfning ko‘rinadigan joyiga chiroyli bezatilgan, ustida "Ezgulik qutichasi" deb yozilgan maxsus quti qo‘ying. Uni o‘quvchilar bilan birgalikda yasashingiz ham mumkin – bu ularda daxldorlik hissini oshiradi.

3. O‘quvchilarga qutining vazifasini tushuntiring: Bu quti bizning sinfimizdagi mehr-oqibat va yaxshiliklarni yig‘adi.

4. Jarayon. Bolalar kun davomida o‘zlari amalga oshirgan yoki sinfdoshlari tomonidan qilingan ijobiy ishlarni qisqacha yozib boradilar. Nimalarni yozish mumkin? "Bugun men Alisherga dars tayyorlashda yordam berdim.", "Sardor yerga tushib ketgan kitobimni olib berdi.", "Biz tanaffusda sinfni tartibga keltirdik." kabilar

5. Har kuni dars oxirida yoki tanaffusda 2-3 daqiqa vaqt ajrating. Bolalar anonim (ismini yozmasdan) yoki ochiq holda qog‘ozchaga yozib, qutiga tashlaydilar.

6. Ezgulik soati. Bu bosqich metodikaning eng muhim qismidir. Odatda haftaning oxirgi kuni o‘tkaziladi. O‘qituvchi qutini ochadi va yozuvlarni birma-bir o‘qiydi. Har bir o‘qilgan ezgulikdan so‘ng butun sinf qarsak chalishi yoki o‘qituvchi iliq so‘zlar bilan rag‘batlantirishi lozim.

Muhim jihat. Salbiy narsalar haqida gapirilmaydi. Faqat ijobiy tomonlar e‘tirof etiladi. Bu bolalarda “Yaxshi ish qilsam, meni hamma hurmat qiladi” degan motivatsiyani uyg‘otadi.

Ushbu metodning ilmiy asosi L.S.Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga borib taqaladi. Olimning fikricha, “bolaning axloqiy rivojlanishi faqat tashqi ta‘sir ostida emas, balki uning ijtimoiy muhit bilan faol muloqoti jarayonida sodir bo‘ladi”. “Ezgulik qutichasi” orqali bola o‘zining ijobiy harakatini ob‘ektivlashtiradi, ya‘ni ichki niyatini tashqi moddiy shaklga yozuvga aylantiradi. Bu jarayon boshlang‘ich sinf o‘quvchisida axloqiy muvaffaqiyat tuyg‘usini uyg‘otadi. Amaliy misol: 2-sinf o‘quvchisi Sanjar dars paytida ruchkasi yozmay qolgan partadoshiga o‘zining zaxira ruchkasini beradi. Kechki payt u “Ezgulik qutichasi”ga: Bugun men do‘stimga ruchka berib turdim va u darsdan qolib ketmadi, deb yozadi. Haftalik tahlil jarayonida o‘qituvchi ushbu harakatni shaxsiylashtirmasdan o‘qib eshittiradi: Sinfirmizda kimgadir yordam qo‘lini cho‘zgan o‘quvchimiz bor, bu juda olijanob ish. Bunday e‘tirof guruh ichida ijobiy xulq-atvorning ijtimoiy normaga aylanishini ta‘minlaydi.

“Axloqiy dilemma” kartochkalari esa o‘quvchini kognitiv ziddiyatli vaziyatga qo‘yadi. Har bir kartochkada yechimi murakkab bo‘lgan hayotiy vaziyat tasvirlangan bo‘lib, o‘quvchi vijdon, halollik va shaxsiy manfaat o‘rtasida tanlov qilishi kerak. Bu usul bolada tanqidiy fikrlashni va axloqiy qaror qabul qilish mas‘uliyatini tarbiyalaydi.

“Axloqiy dilemma” kartochkalari metodikasi — bu o‘quvchilarni tayyor axloqiy qoliplardan foydalanishga emas, balki murakkab vaziyatlarda mustaqil va ongli qaror qabul qilishga o‘rgatuvchi yuqori samarali texnologiyadir. Ushbu metod Lourens Kolbergning axloqiy rivojlanish nazariyasiga asoslangan bo‘lib, o‘quvchining tanqidiy fikrlashini va vijdon erkinligini rivojlantiradi.

Quyida ushbu metodikadan foydalanish bo‘yicha batafsil yo‘riqnomaga keltirilgan:

Kartochkalarni tayyorlash. Kartochkalar shunday tuzilishi kerakki, undagi vaziyatda ikkita ijobiy qadriyat yoki bitta ijobiy fazilat va bitta shaxsiy manfaat o‘zaro to‘qnashishi ziddiyat kerak. Bir tomonida muammoli vaziyat tasviri yoki matni, ikkinchi tomonida esa yo‘naltiruvchi savollar bo‘ladi. Masalan, rostgo‘ylik va do‘stlik, adolat va rahm-shafqat, mas‘uliyat va qo‘rquv.

Axloqiy dilemmalarga misollar:

1. Sinfdoshingiz tasodifan ustozning sevimli vazasini sindirib qo‘ydi. Ustoz so‘raganda, aybni boshqa aybsiz bolaga yuklashmoqda. Siz haqiqatni bilasiz. Rostgo‘ylik va do‘stga sadoqat.

2. Siz maktab oshxonasida 20 000 so‘m topib oldingiz. Bu pulga juda kerakli o‘quv quroli olsangiz bo‘ladi. Lekin pastki sinf o‘quvchisi pulini yo‘qotib yig‘lab yurganini ko‘rdingiz. Shaxsiy ehtiyoj va halollik.

3. Eng yaqin do‘stingiz nazorat ishidan yiqilsa, maktabdan haydalihi mumkin. U sizdan ko‘chirib olishga ruxsat so‘rayapti. Qonun-qoidaga amal qilish va do‘stlik yordami.

Metodikaning bosqichma-bosqich qo‘llanilishi

1. Guruhlarda ishlash. Sinfni kichik guruhlariga bo‘ling. Har bir guruhga bittadan “Dilemma kartochkasi”ni bering. Guruh a‘zolari vaziyatni o‘qiydi va undagi qahramon o‘rnida qanday yo‘l tutish kerakligini muhokama qiladi.

Muhim shart. Yagona to‘g‘ri javob yo‘q deb e‘lon qilinadi. Asosiy urg‘u tanlovning sababiga – nima uchun shunday qilding? savoliga qaratiladi.

Axloqiy bahs muhokama. Har bir guruh o‘z qarorini va uning asoslarini sinfga taqdim etadi.

O‘qituvchining vazifasi “Agar shunday qilsangiz, oqibati nima bo‘ladi?”, “Sizning bu qaroringizdan kim zarar ko‘radi?”, “Boshqa yo‘li bormidi?” kabi savollar bilan bolani chuqurroq o‘ylashga undashga iborat.

Modelning yana bir muhim texnologik elementi – “Axloqiy dilemma” kartochkalari hisoblanadi. Amerikalik psixolog va pedagog Lourens Kolberg o‘zining axloqiy rivojlanish nazariyasida bolalarning axloqiy darajasini aynan dilemmalar orqali aniqlashni taklif etgan. Uning fikricha, axloqiy ta‘lim – bu bolaga qoidalarni yodlatish emas, balki uni murakkabroq axloqiy mulohaza yuritishga o‘rgatishdir.

Biz taklif etayotgan modelda kartochkalar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yoshiga mos ravishda “Siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?” formatida ishlab chiqiladi.

Amaliy misol, Kartochkada quyidagi vaziyat beriladi: Siz tanaffusda sinfdoshingizning sumkasidan tushib qolgan pulni topib oldingiz. Atrofdagi hech kim yo‘q. Siz muzqaymoq sotib olishingiz mumkin yoki pulni egasiga qaytarishingiz kerak. Nima qilasiz?.

Ushbu vaziyat muhokama qilinganda, o‘qituvchi o‘quvchilarni halollik va vaqtinchalik lazzat o‘rtasidagi farqni anglashga yo‘naltiradi. Bu yerda Jan Piyajening axloqiy avtonomiya g‘oyasi ishga tushadi, ya‘ni bola qoidani jazo qo‘rquvi uchun emas, balki ichki adolat hissi uchun bajarishi kerakligini tushunib boradi.

Ushbu metodikadan foydalanishda o‘qituvchi uchun metodik “Oltin qoidalar” mavjud:

1. Hukm qilmaslik. O‘quvchi noto‘g‘ri qaror aytsa ham, uni darrov urishmang. Buning o‘rniga, shu qarorning oqibatlarini tahlil qilishga chorlang.

2. Ko‘p variantlilik. Bolalarni uchinchi, to‘rtinchi yechimlarni izlashga o‘rgating masalan, “Pulni o‘zingizga olmag, lekin egasiga berishda do‘stingiz bilan birga boring”.

3. Refleksiya. Mashg‘ulot oxirida, “Bugun qaror qabul qilishda qiynaladingizmi? Nima uchun?” deb so‘rang.

Rolli ssenariylar. “Rolli ssenariylar” metodi bu – o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydigan, ularning ijtimoiy va axloqiy ko‘nikmalarini jonli tarzda shakllantiradigan eng faol pedagogik texnologiyalardan biridir. Bu metodda o‘quvchi shunchaki kuzatuvchi emas, balki muayyan bir shaxs qiyofasiga kiruvchi va uning nomidan qaror qabul qiluvchi subyektga aylanadi. L.Vigotskiy bolaning rivojlanishida o‘yin faoliyatini eng yuqori darajadagi maktab deb atagan. Uning fikricha, bola rolni bajarish orqali o‘z yoshidan bir bosh baland harakat qila boshlaydi. Bugungi kunda bu metod G‘arb pedagogikasida “Simulation learning” sifatida keng qo‘llaniladi va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishning eng samarali yo‘li hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun yaxshi bo‘lish kerak degan gap mavhumdir. Ammo “Kassada pulini yo‘qotib qo‘ygan xaridor” rolini o‘ynagan bola, o‘zganing holatini va yordam berish mas‘uliyatini ich-ichidan his qiladi.

Usulning asosiy maqsadi – nazariy axloqiy bilimlarni amaliy xulq-atvorga aylantirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topishni o‘rgatishdan iborat.

Foydalanish metodikasi. Ushbu metoddan quyidagi 5 bosqichli algoritm asosida foydalaniladi:

I bosqich ssenariyni tanlash. O‘qituvchi o‘quvchilar hayotida uchraydigan dolzarb mavzuni tanlaydi. Mavzular: “Avtobusda kattalarga joy berish”, “Yangi kelgan o‘quvchi bilan tanishish”, “Do‘stim bilan arazlashib qoldim”.

II bosqich rollarni taqsimlash. O‘quvchilarga rollar beriladi. Bu yerda “Inversiya” usulidan foydalanish juda foydali. Masalan, doim sho‘xlik qiladigan bolaga “Intizom posboni” yoki “Ustoz” rolini berish uning mas‘uliyatini oshiradi.

III bosqich sahnalashtirish. O‘quvchilar berilgan ssenariy bo‘yicha harakat qiladilar. Bu yerda qat‘iy matn bo‘lishi shart emas, improvizatsiyaga imkon berilishi lozim.

IV bosqich to‘xtatish va tahlil. Ssenariy eng qiziq yoki murakkab joyiga kelganda o‘qituvchi Stop! deydi va sinf bilan muhokama boshlaydi: Qahramon hozir nimalarni his qilyapti?, U yana qanday javob berishi mumkin edi?, Nima uchun u xafa bo‘ldi?...

V bosqich qayta o‘ynash. Tahlildan so‘ng, ssenariy eng ijobiy va to‘g‘ri yechim bilan qayta ijro etiladi. Bu o‘quvchilar xotirasida “Ijobiy xulq-atvor modeli” sifatida muhrlanadi.

Masalan, Ssenariy nomi: “Adolatli bo‘lish osonmi?”

Rollar: Sotuvchi, Xaridor, Kuzatuvchi.

Vaziyat. Xaridor bola do‘kondan narsa sotib oladi, lekin sotuvchi adashib unga ko‘proq qaytim berib yuboradi.

Vazifa. Bola pulni qaytarib beradimi yoki indamay chiqib ketadimi? Do‘sti unga nima deydi?

Usuldan foydalanish davomida o‘qituvchi 3 ta “Oltin qoida”ga amal qilishi lozim:

1. Xavfsiz muhitga, Bola rol o‘ynayotganda xato qilsa, uni ustidan kulishga yo‘l qo‘ymang. Bu uning shaxsi emas, shunchaki rol ekanligini ta’kidlang.

2. Hissiyotlarga urg‘u bering, “Sizningcha, sotuvchi pul kamligini bilib qolsa, nimalarni his qiladi?” kabi savollar bilan bolalarda empatiyani uyg‘oting.

3. Hamma ishtirok etishiga e’tibor bering, faqat faol bolalarni emas, tortinchoq bolalarni ham kichik rollarga jalb qiling.

“Sensirama” metodi lotincha sensus – sezgi, his etish va yunoncha horama – ko‘rinish, tomosha – bu ta’lim jarayonida o‘quvchining barcha sezgi a’zolarini ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’im bilish va ushlab ko‘rish baravar faollashtirish orqali axloqiy tushunchalarni hissiy darajada o‘zlashtirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyadir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy fazilatlarni shakllantirishda bu metod quruq nasihatdan ko‘ra o‘n barobar kuchliroq ta’sir qiladi, chunki u bolaning emotsional xotirasiga muhrlanadi. Zamonaviy neyropedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hissiyot bilan bog‘langan ma’lumot miyaning uzoq muddatli xotira qismida mustahkam saqlanadi.

Metodning mohiyati – mehribonlik, saxovat, ona tabiatga muhabbat kabi mavhum ijobiy fazilatlarni moddiylashtiradi.

### **Tadqiqot natijalari va tahlili**

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodlar tizimining samaradorligini baholash uchun dars jarayonlarida va darsdan tashqari tadbirlarda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar determinantlar integratsiyasi tajribadan o‘tkazildi. Metodlarni to‘g‘ri qo‘llash mezonlari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, darslarda “Muloqot va hamkorlik” modeliga asoslangan interaktiv o‘yinlar muntazam qo‘llanilganda, sinf jamoasida nizoli vaziyatlar 35% ga kamaygan, o‘quvchilarning o‘zaro yordam ko‘rsatish altruistik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshgan. Bolalar shunchaki yaxshi bola bo‘lish kerak degan qoidani yodlamay, uning ijtimoiy mohiyatini anglab, kundalik hayotlariga tatbiq eta boshlaganlar.

### **Xulosa**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy fazilatlarni shakllantirish — subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan, bolaning yosh va kognitiv xususiyatlarini inobatga oluvchi murakkab pedagogik jarayondir. Maqolada keltirilgan rolli o‘yinlar, kollektiv ijodiy faoliyat,

muammoli suhbatlar va ertakterapiya kabi metodlar majmuasi o‘quvchining ichki potensialini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ta’lim jarayoniga zamonaviy interaktiv va reflektiv metodlarni tizimli hamda integratsiyalashgan holda joriy etish, boshlang‘ich sinf bitiruvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini yuksaltirish va ularda barqaror ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishning fundamental garovidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avloniy, A. (1912). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent.
2. Piaget, J. (1932). The Moral Judgment of the Child. London: Kegan Paul, Trench, Trubner & Co.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. Ivanov, I. P. (1989). Encyclopedia of Collective Creative Actions. Moscow.